

Sentyabr 2026 yil

Hurmatli oilalar,

Maktabga xush kelibsiz! Siz bilan barcha o'quvchilarimizning, ayniqsa muhojir va hujjatsiz maqomdagi oilalarimiz farzandlarining xavfsizligi hamda ta'lim olishini qo'llab-quvvatlash borasidagi sa'y-harakatlarimiz haqida muhim ma'lumotlarni ulashish uchun ushbu maktubni yozyapman. O'zim ham immigrant bo'lganim sababli, aniq aytmoqchiman: Nyu-York shahri davlat maktablari (NYCPS) immigratsiya maqomidan qat'i nazar, har bir bolani chin dildan qutlaydi va ularga xizmat ko'rsatadi.

Maktablarimiz barcha oilalarimizga tegishlidir. NYCPS o'quvchilarimizning immigratsiya maqomini so'ramaydi va kuzatmaydi. Biz o'quvchilar haqidagi ma'lumotlarni himoya qilamiz hamda mahalliy bo'lmagan huquqni muhofaza qilish organlariga, jumladan Immigratsiya va bojxona nazorati (ICE) xizmatiga, qonun tomonidan talab qilinmagan va NYCPS huquqshunoslari bilan maslahatlashilmagan barcha holatlarda o'quvchilarimiz, maktablarimiz yoki hujjatlarimizdan foydalanishga ruxsat berilmaydi.

Immigratsiya bilan bog'liq xavotirlar bolalar va oilalar uchun noaniqliklar keltirib chiqarishi mumkinligini yaxshi bilamiz. Shuningdek, maktab jamoatchiligimizning ayrim a'zolariga immigratsiya dasturlaridagi, jumladan, Vaqtinchalik himoyalangan maqom (TPS) tizimidagi o'zgarishlar ta'sir qilishi mumkinligini ham tushunamiz. Maktabingiz sizni qo'llab-quvvatlashga doimo tayyor. Agar sizda yoki oila a'zolaringizda oilangizga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar yuzasidan savollar yoki xavotirlar bo'lsa, sizni "Project Open Arms" dasturi bilan bog'lashlari uchun maktabingiz direktori bilan gaplashing. "Project Open Arms" va shahar bo'yicha hamkorlarimiz orqali oilalar o'z imkoniyatlarini tushunishlari hamda ishonchli manbalar bilan bog'lanishlari uchun "Huquqlaringizni biling" ma'lumotlaridan hamda bepul, maxfiy immigratsiya huquqiy yordamidan foydalanishlari mumkin.

O'quv yili boshlanar ekan, oilalarga maktabdagi favqulodda vaziyatlarda bog'lanish ma'lumotlari dolzarb ekanligini tekshirishni hamda [NYCPS'ning "Project Open Arms"](#) dasturi orqali taqdim etiladigan resurslarni ko'rib chiqishni tavsiya qilamiz. Zarurat tug'ilganda, oilalar bepul yozma va og'zaki tarjima xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega. Batafsil axborot uchun schools.nyc.gov/ProjectOpenArms saytiga tashrif buyuring.

Bundan tashqari, NYCPS Immigrantlar ishlari bo'yicha mer ofisi (MOIA) bilan hamkorlik qilishda davom etmoqda. Oilalarni qo'shimcha ma'lumot olish uchun bepul, xavfsiz va maxfiy bo'lgan 1-800-354-0365 raqamli MOIA Huquqiy qo'llab-quvvatlash ishonch telefoni orqali bog'lanishga yoki nyc.gov/immigrants saytiga tashrif buyurishga chorlaymiz.

Sizni va farzandlaringizni 2026–27 o‘quv yilida kutib olishdan faxrlanaman. Har bir o‘quvchi o‘zini xavfsiz, qadrli va qo‘llab-quvvatlangan his qiladigan maktabda ta‘lim olishga loyiqdir.

Hamkorlik umidi ila,



Kamar H. Samuels
Maktablar tizimi rahbari